

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI*Saidova Dildora Baxtiyarovna**TDSI Akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Oripov she'rlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda yuksak darajadagi badiiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: A. Oripov, shoir, she'r, badiiyat, yurt, tabiat, xalq...

O'zbek xalqi azaldan shoirtabiat xalq, uning tuprog'idan tortib yaprog'igacha shoirdir.

*Temur tig'i yetmagan joyni,
Qalam bilan oldi Alisher.*

deb yozgan o'zbek xalqining sevimli farzandi, shoir Abdulla Oripov Temur kabi sohibi zamonlar qilichi yetmagan yerlarni qalam bilan olishga Alisherni qodir qilgan qudrat she'riyatdir. She'riyatni "onajonim" deb ulug'lagan va chindan ham she'riyatga fidoyi farzand bo'lgan Abdulla Oripovning she'ri kirib kelmagan bironta xonadon O'zbekistonda topilmasa kerak. Abdulla Oripov she'riyatining o'ziga xosligi shundaki, u behad o'ziga xos shoir. U sevsa, yonib, o'rtanib sevadi, agar nafratlansa, sevgisi darajasidagi kuchli dard, armon bilan nafratlanadi. Unda hech qachon oraliq holat bo'lmaydi.

Men shoirman, istasangiz shu,
O'zirniki erur shu sozim.
Birovlardan olmadim tuyg'u,
O'zgaga ham bermam ovozim.

Bu – o'zligini anglagan o'zbekning o'ktam ovozi. Ayni paytda "mijg'ov va past" gaplardan zada bo'lgan shoir qalbining nidosi. "Sozim" she'ri shoirning eng yoniq, fikrchan va kurashchan she'riyati namunasi hisoblanadi.

Poetik manzaralar yaratish, tabiat manzaralarini inson tuyg'ulariga yo'g'irib tasvirlash Abdulla Oripov she'riyatining yana bir o'ziga xos, takrorlanmas qirralaridan hisoblanadi. U shu qadar ajoyib, betakror manzaralar yaratadiki, usta rassomlardan ham o'tkarib yuboradi. Aslida she'riyat- bu, rangin olamning inson tuyg'ulariga, inson kechinmalariga yo'g'rilgan tasviridir. Ma'lumki, hamma voqea-hodisalar zamon va makonda sodir bo'ladi. Hatoki, inson qalbida kechgan eng mayda tuyg'ular ham.

Kimningdir ko'ksiga engashgancha gul
Marmar sag'anadan o'qib turar bayt.

Mazkur misralarda bir tomonda mangu yo'qlikka ketgan insonning mangu makoni, ikkinchi tomonda esa uning ko'ksiga engashib, tiriklik qo'shig'ini kuylab turgan gul tasviri chizilgan

Yo‘q, shoirlar aldaydi bizni,
Bahor faqat uch oydir xolos.

Adabiyotimizda Abdulla Oripovning “Mitti yulduz”i porlaguncha muhabbat mavzusi eski ohanglarda, siyqa obrazu tashbehlarda kuylanar edi. Birovlar yorning qoshu ko‘zini maqtab ovora bo‘lsalar, ba‘zilar bevafo yorga ta’na toshlarini otib charchamas edilar. Uning she’riyatidagi oshiq obrazi esa armonli muhabbatga duchor bo‘lib, bir umr “hayot barcha ne‘matlarini ayamasa-da, muhabbat taqdiridan maqtan olmay” o‘tishga mahkumdur. Lekin u munisa qizga hech qachon ta’na toshlarini otmaydi, bevafoqlikda ayblamaydi, balki – “Geyneni yondirgan yulduz”, “Alisherning Gulisi” darajasida sevilgan qiz –shoirning she’rlariga muattar bo‘y taratib turgan gulga o‘xshaydi.

Abdulla Oripov ijtimoiy mazmunda davrimizning katta gaplarini ajib misralarda ayta olgan shoirdir. Uning “Yuzma-yuz”, “Temir odam”, “Uyqu”, “Dengizga” kabi she’rlarida davrimizning dolzarb masalalari ko‘tarilgan. Bu she’rlar xususida juda ko‘p munozaralar bo‘lib o‘tgan. Katta munaqqidlar bu she’rlarni har tomonlama sharhlab, yuksak baho berishgan. Shoir o‘zining otashin misralari bilan vijdoni uyg‘oq kishilarni olomon orasidan tortib chiqarmoqchi. Biroq shoir razillar razolatiga qancha ko‘p duchor bo‘lmasin, bedillar sitamidan qancha ko‘p ozor chekmasin, inson qalbining ezguligiga va bu ezgulikning manguligiga qattiq ishonadi.

Shoirning ko‘pdan ma’lum va mashhur she’rlaridan biri “Nay” she’ridir. Undagi badiiylik hayotning, haqiqatning o‘zidir. Qamishning “adirlarda durkun yashagani” ham, odamlar uning tanasini pichoq bilan kesib olganlari ham, ko‘zi va bag‘rini o‘yib olganlari-yu, bu ham yetmagandek, bo‘g‘ziga lablarini qo‘yib puflaganlari ham haqiqatdir. Alamiga chiday olmay sho‘rlikning nola chekib yuborgani, odamlar esa qamishni yig‘latib qo‘yib, rohat qilganlari ham rost.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov she’riyatini xalq va adabiyotshunoslik bir ovozdan e’tirof etganidek, o‘zbek poeziyasida muhim o‘ringa, katta salmoqqa ega bo‘lgan she’riyatdir.

Uning she’riyatidagi xalq qalbiga yaqinlik, xalq dilidagi quvonch va shodlik, armon va dardlarni topib so‘ylash, insonning rangin tuyg‘ularini rassomona ko‘z bilan ilg‘ab, musiqiy misralarda ifodalash, uning she’riyatidagi badiiy haqqoniyat uyg‘unligi – shoir she’rlarining takrorlanmas, o‘ziga xos xususiyatlaridandir.

Abdulla Oripovdek shoirning qalbi ona zamin yanglig‘ saxovatlidir. Zamin bag‘rida turfa xil gullar ochiladi, tikanlar o‘sadi. Shu kabi shoirning qalbi ham o‘z tuyg‘ularidan turfa xil gullar – she’riyat gullarini armug‘on etadi. Chindan ham Abdulla Oripovning she’rlari mohiyat e’tibori bilan voqe bo‘lgan she’rlardir. Biz uchun, “shoir bir yurt” bo‘lgan O‘zbekiston uchun shoir ham, uning she’rlari ham hamisha aziz va ardoqlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Oripov. Yuzma-yuz. — Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti. Toshkent, 1978
2. A Oripov. Yillar armoni. — Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti. Toshkent, 1984.
3. A. Oripov. Najot qalʼasi. — Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti. Toshkent, 1980
4. A. oripov. Surat va siyrat. — “Yosh gvardiya” nashriyoti, Toshkent, 1981.
5. Abdulla Oripov. Mitti yulduz. — Toshkent, 1965.